XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 19-dekabr VII-3-017-9-125-K/24 Mirzaobod tumani

Mirzaobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-son bayoni, 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni, 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastragentligining 2024-yil 11-martdagi Sirdaryo viloyati hokimligiga 04/08-2328-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Mirzaobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil 21-oktabrdagi 01/10-180 - sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Mirzaobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Mirzaobod tumani bilan chegaradosh boʻlgan Guliston shahri, Sirdaryo, Sayxunobod, Guliston, Boyovut, Xovos, Sardoba, Oqoltin tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻi O.Xasanovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Sessiya raisi

BAYTURAYEV
DILSHOD
KARAMATULLAYEVICH

Xalq deputatlari Mirzaobod tumani
Kengashining
2024-yil 19-dekabrdagi
VII-3-017-9-125-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Qozogʻiston Respublikasi, Oqoltin va Mirzaobod tumani chegara chizigʻining tutashgan joy boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 kordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari 40°34'29,743", sharqiy uzunlik koordinatlari 68°29'26,330").*

A dan B gacha Qozogʻiston Respublikasi yerlari bilan 1 - 2 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan 2-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°35'58,020", sharqiy uzoqlik 68°39'47,390").*

B dan D gacha Sirdaryo tumani yerlari bilan 2-6 nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi qo'yidagicha:

2 - nuqtadan chegara chizig'i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda Do'stlik kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 25 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 918 metr masofani o'tib, kanal bo'yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'30,141", sharqiy uzoqlik 68°40'01,052").*

3 – nuqtadan chegara chizig'i Do'stlik kanalidan zovurga o'tadi va zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2498 metr, keyin sharqiy yo'nalishda 320 metr masofani o'tib, zovur burilishida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'37,456"", sharqiy uzoqlik 68°41'13,439").*

4 – nuqtadan chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1787 metr masofani o'tib, keyin sharqiy yo'nalishda 965 metr masofani o'tib, A-373 avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'16,807", sharqiy uzoqlik 68°42'49,592").*

5 – nuqtadan chegara chizig'i A-373 avtomobil yo'lini kesib o'tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 918 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 129 metr masofani o'tadi, so'ngra to'g'ri chiziq orqali sharqiy yo'nalishda 122 metr masofada M-34 avtomobil yo'lini, temir yo'lni kesib o'tib, Sirdaryo, Sayxunobod va Mirzaobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'20,513", sharqiy uzoqlik 68°43'34,636").*

D dan E gacha Sayxunobod tumani yerlari bilan 6-7 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

6 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 43 metr masofani o‘tib, Sayxunobod, Guliston va Mirzaobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, yo‘l bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'19,164", sharqiy uzoqlik 68°43'35,113").*

E dan F gacha Guliston tumani yerlari bilan 7-9 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

7 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 325 metr masofani o‘tib temir yo‘lga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1074 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'35,038", sharqiy uzoqlik 68°43'48,390").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 414 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 48 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 139 metr, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 70 metr masofada temir yo‘lga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3816 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'15,636", sharqiy uzoqlik 68°44'30,758").*

F dan G gacha Guliston shahri yerlari bilan 9-22 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

9 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lini avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 221 metr masofani o‘tib, so‘ng kanalni kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 2258 metr, keyin janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 507 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'03,093", sharqiy uzoqlik 68°42'50,836").*

10 – nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomon dambasi bo‘ylab 242 metr masofani o‘tadi, keyin zovurdan ariqqa o‘tib umumiy janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni, zovurning dambasi bo‘ylab 2281 metr masofani o‘tadi, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 146 metr masofada zovurni, ariqni kesib o‘tib, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'46,637", sharqiy uzoqlik 68°42'36,576").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 901 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'27,270", sharqiy uzoqlik 68°43'09,574").*

12 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Do‘stlik kanlining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 3366 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'21,738", sharqiy uzoqlik 68°45'03,660").*

13 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 91 metr masofada Do‘stlik kanalidan tomorqa chegarasiga o‘tib, keyin tomorqa chegarasi

bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 150 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 59 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 272 metr masofada tomorqa chegarasiga o‘tib, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 433 metr masofada zovurni kesib o‘tadi va qishloq ichki yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 133 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'52,603", sharqiy uzoqlik 68°44'56,482").*

14 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan zovurga o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 411 metr masofada zovurni kesib o‘tadi va dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 107 metr masofada tomorqa devoriga o‘tib, so‘ngra tomorqa devori bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 429 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 290 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'26,254", sharqiy uzoqlik 68°44'43,802").*

15 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan zovurni kesib o‘tadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 400 metr masofada zovurni kesib o‘tadi va qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 72 metr, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 314 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ngra tomorqa chegarasi bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 159 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 91 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 45 metr masofada ariqqa o‘tib, so‘ngra janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqiniga qarshi chap tomoni bilan 421 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'47,143", sharqiy uzoqlik 68°44'37,886").*

16 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini, zovurni kesib o‘tadi va qishloq ichki yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 325 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 146 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'36,411", sharqiy uzoqlik 68°44'43,770").*

17 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan devorga o‘tib, keyin devor bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 77 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng devor bo‘ylab umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 213 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 47 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 143 metr masofani o‘tib, devor bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutasshadi. *(shimoliy kenglik 40°29'22,993", sharqiy uzoqlik 68°44'47,279").*

18 – nuqtadan chegara chizig‘i devor bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 110 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 98 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 69 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 78 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 43 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 145 metr masofada R-29 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'19,315", sharqiy uzoqlik 68°44'41,271").*

19 – nuqtadan chegara chizig‘i R-29 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1239 metr masofada kanalni kesib o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 35 metr

masofada kanalga o‘tib, so‘ng sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 182 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'14,459", sharqiy uzoqlik 68°45'41,310").*

20 – nuqtadan chegara chizig‘i kanal bo‘yidan qishloq ichki yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 221 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 59 metr masofada devorga o‘tib, so‘ngra devor bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 166 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha buirilishlarni hisobga olgan holda 620 metr masofada zovurni, avtomobil yo‘lini, temir yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 136 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'04,778", sharqiy uzoqlik 68°46'05,489").*

21 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 718 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 86 metr masofada zovurga o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 440 metr masofada avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib, Guliston shahri hamda Boyovut, Mirzaobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'28,153", sharqiy uzoqlik 68°46'20,286").*

G dan H gacha Boyovut tumani yerlari bilan 22-26 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

22 – chegara chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 82 metr masofada temir yo‘liga o‘tib, keyin temir yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 559 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'09,943", sharqiy uzoqlik 68°46'22,429").*

23 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4996 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'32,192", sharqiy uzoqlik 68°47'10,424").*

24 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 8458 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'05,060", sharqiy uzoqlik 68°48'31,298").*

25 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 2625 metr masofani o‘tib, Mirzaobod, Boyovut va Xovos tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, yo‘l bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'42,274", sharqiy uzoqlik 68°48'56,479").*

H dan I gacha Xovos tumani yerlari bilan 26-33 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

26 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 70 metr masofada zovurni, temir yo‘lni kesib o‘tib, tomorqa devoriga o‘tadi va devor bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 43 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga o‘tadi, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 316 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan 84 metr masofada M-39 avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘lning

sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 140 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'50,251", sharqiy uzoqlik 68°48'42,211").*

27 – nuqtadan chegara chizig‘i M-34 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1091 metr masofada yo‘lni kesib o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 25 metr masofada R-31 avtomobil yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 7551 metr masofani o‘tib, R-31 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'21,609", sharqiy uzoqlik 68°43'43,957").*

28 – nuqtadan chegara chizig‘i R-31 atomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2779 metr masofani o‘tib, keyin zovurni kesib o‘tadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1986 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'41,313", sharqiy uzoqlik 68°41'50,091").*

29 – nuqtadan chegara chizig‘i zovur bo‘yidan dala tuproq yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 639 metr masofada zovurga o‘tib, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 43 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3600 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 3851 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'41,061", sharqiy uzoqlik 68°36'16,441").*

30 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan zovurga o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 4706 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va beton ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 3925 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 43 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'49,074", sharqiy uzoqlik 68°30'49,213").*

31 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni 866 metr masofani o‘tib, keyin Markaziy kollektr-6 zovurini kesib o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zourning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 519 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 189 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, Sardoba suv ombori bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'14,048", sharqiy uzoqlik 68°30'16,262").*

32 – nuqtadan chegara chizig‘i Sardoba suv ombori o‘zani bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3612 metr masofani o‘tib, suv ombor o‘zanida joylashgan boshlang‘ich 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'09,617", sharqiy uzoqlik 68°28'13,717").*

I dan J gacha Sardoba tumani yerlari bilan 33-36 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

33 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali Sardoba suv ombori o‘zani bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 690 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 465 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 309 metr masofani o‘tib, suv ombor platinasida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'51,852", sharqiy uzoqlik 68°27'56,210 ").*

34 – nuqtadan chegara chizig‘i Sardoba suv omboridan Markaziy tarmoq kanaliga o‘tadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 381 metr, keyin umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 654 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'08,673", sharqiy uzoqlik 68°27'21,668").*

35 – nuqtadan chegara chizig‘i Markaziy tarmoq kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3716 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 3868 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 53 metr masofani o‘tib, Oqoltin, Mirzaobod, Sardoba tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, R-33 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'03,384", sharqiy uzoqlik 68°25'55,150").*

J dan A gacha Oqoltin tumani yerlari bilan 36- 1-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

36 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofada Chap tarmoq kanalini kesib o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'05,447", sharqiy uzoqlik 68°25'57,107").*

37 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 70 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 101 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'05,854", sharqiy uzoqlik 68°26'03,785").*

38 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 607 metr masofada R-31 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 745 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'41,023", sharqiy uzoqlik 68°26'36,085").*

39 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3943 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'11,606", sharqiy uzoqlik 68°28'34,130").*

40 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5112 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 483 metr masofada A-373 avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 883 metr masofani o‘tib, ko‘prik bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'08,111", sharqiy uzoqlik 68°32'05,358").*

41 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda A-373 avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib, Markaziy Mirzacho‘l zovuriga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 629 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 786 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2329 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'39,402", sharqiy uzoqlik 68°30'28,284").*

42 – nuqtadan chegara chizig‘i Markaziy Mirzacho‘l zovurining suv oqimi bo‘ylab

o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3099 metr masofani o‘tib, suv o‘tkazgichda joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'52,338", sharqiy uzoqlik 68°28'59,884").*

43 – nuqtadan chegara chizig‘i suv o‘tkazgichdan Markaziy Mirzacho‘l zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1772 metr masofada quruq zovurga o‘tadi keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1185 metr masofada boshqa zovurga o‘tib, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 250 metr masofani o‘tib, boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'29,743", sharqiy uzoqlik 68°29'26,330").*

Xalq deputatlari Mirzaobod tumani
Kengashining
2024-yil 19-dekabrdagi
VII-3-017-9-125-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI

